



BADIIY KULOLCHILIK BEZAKLARIDA CHIZMA NAQSHLARDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xamraliyev Raxmatillo Baxtiyor o'g'li

QDPI muhandislik grafikasi va dizayn nazariyasi yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: *loy qancha ko'p pishitilsa, sopolning sifati shuncha yaxshi bo'ladi. Kulolchilikda asosiy qurol kulollik charxi, usta unda idishlar tayyorlaydi va ularga shakl beradi. Tayyorlangan idishlar quritilib, xumdonida qizdiriladi. Idishlarning turlariga ko'ra, xumdonlar ham turlicha (katta-kichik) bo'lishi mumkin. Sirlanadigan idishlar sirlanganidan so'ng yana bir bor xumdonida qizdiriladi. Odatda, kulollar ma'lum idishlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo'ladilar (masalan kosagar, ko'zagar, koshinpaz, tandirchi va boshqalar).*

Kulollik, Kulolchilik — hunarmandlikning loydan turli buyumlar (terrakota, sopol idish, qurilish materiallari va boshqalar) tayyorlaydigan turi. Kulolchilikda asosiy xom ashyo — tuproq. Kelib chiqishi va tarkibi turlicha bo'lgan tuproqlardan turli xil kulollik buyumi yasash jarayoni amalga oshiriladi.

Kalit so'zlar: *loy, spool, sifat, kulol, charx, usta, idish, shakl, xumdon, kosagar, ko'zagar, koshinpaz, tandirchi, hunarmandlik, terrakota, tuproq.*

Haqiqatan ham, insoniyat yaratib qoldirgan madaniy boyliklar faqat o'tmish kishilaridan qolgan yoki yaratilayotgan boyliklar bo'lib qolmay, balki o'zida inson aql-zakovati, hayot to'g'risidagi fikro'ylarini aks ettiruvchi ko'zgu hamdir. Kulolchilik san'ati tarixini o'rganish, uning taraqqiyot qonunlarini tushunish, nodir yodgorliklar bilan tanishish o'tmish odamlarining his-tuyg'u, hayotiy tajribalarini o'rganish g'oyaviy-estetik qarashlarining shakllanishini bilish demakdir. Bu so'zsiz, kishilarda xayotiy tajribalarning boyishiga, hayotga yanada keng va atroflicha yondashishga yordam beradi.

Hozirgi kunda badiiy bezatish usuli, shakli va tayyorlanish usullariga ko'ra quyidagi kulolchilik maktablari mavjud: Farg'ona (asosiy markazlari — Rishton, Furumsaroy), Buxoro-Samarqand (asosiy markazlari — Samarqand, Urgut, G'ijduvon, Uba), Xorazm (asosiy markazlari — Madir, Kattabog' qishloqlari), Toshkent. Har bir maktab o'zining rivojlanish va ijodiy tamoyillari, yetakchi markaz va ustalari, o'zigagiva xos xususiyatlariga ega bo'lish bilan birga asosiy badiiy umumiylikni ham saqlagan.

Farg'ova (Rishton)da kulolchilikning an'anaviy badiiy va ishlab chiqarish usullari qayta tiklandi, ishkrarli sir tayyorlash yo'lga qo'yildi. M. Ismoilov, I. Komilov, U. Ashurov, U. Qosimov, Sh. Yusupov, A. Vazirov, M. Saidov va boshqa ustalar yaratgan buyumlar (lagan, kosalar, don mahsulotlari uchun katta xumlar) shakl jihatidan ham, bezak jihatidan ham rangbarangdir.

Kulolchilik hunari bir necha sohalarga bo'lingan. Masalan, Farg'ona ustalari kosagar, ko'zagar, lagansoz, tog'orasoz, xurmachi, xumchi kasblariga bo'lingan. Sopol idishlarning o'zi esa sirlanmagan, sirlangan va chinni buyumlarga bo'lingan. Sirlanmagan idishlarga uy-ro'zg'or buyumlari – xum, xumcha, ko'zacha, obdasta, tandir kirgan. Ular qo'lda tasma holiday loy bo'laklarini birlashtirib yasalgan. Kichik yog'och asbob bilan birlashgan joylar silliqlangan.



Qadimdan vodiya kulolchilik rivojlangan maskanlaridan biri Chust qishlog'i bo'lib, bu yerdan ko'plab qadimiy kulolchilik buyumlari qoldiqlari topilgan. Odatda fanda bu topilmalarni Chust madaniyati deb ataladi. Bu davrdagi chustliklarning sopol idishlari silliq loydan pishirilib, ustiga qizil kesakdan sidirg'a bo'yoq surtilgan, ba'zilariga sidirg'a sayqal berib yaltiratilgan, ba'zilarini esa qora bo'yoq bilan ziynatlangan.

Mahsulotlarning naqshlardagi gul nusxalari o'simliklardan olingan bo'lib, ko'proq yirik hajmli gul nusxalari bu yer kulolchiligiga xos bo'lgan. Bu yerda ustalar naqshlarning "Larzana", "Tuyako'z", "Anorgul", "Baliqnusxa", "Ilonyo'lli" kabi nusxalaridan ko'proq foydalangan.

Kulolchilikda buyum tayyorlashning mas'uliyatli bosqichi, bu buyumga naqsh va sir berish jarayonidir. Xususan rishtonlik ustalar buyumlarini ko'proq lojuvari siridan keng foydalanib, ko'k-havorang, yashil-havorang, jigarrang yoki jigarrang-binafsha kabi ranglari bilan naqshlaganlar. Naqshlar ko'pincha o'simliklardan olingan islimiy ko'rinishda, turli-tuman bo'lgan. Oddiy buyumlar rangsiz ishqor bilan sirlansa, nafis yasalgan buyumlar qalay-qo'rg'oshin tusli qalayi yoki qo'rg'oshin bilan sirlangan. Vodiya kulollar ko'k, sariq, qizil, qora, zangori, oq va boshqa ranglarga o'rik yelimi, un, qum, temir kukuni aralashtirib ham idishlarni ranglarga bo'yaganlar. Idishlarga ayrim ustalar qolip yordamida ham naqsh tushirganlar. Odatda qalami uslubida naqshlangan ko'k yoki jigarrang tus berilgan buyumlar oshqovoq, sabzi, lavlagi kabi sabzavotlardan yasalgan qoliplar orqali naqshlangan.

Kerakli materiallar: Sopol, lagan, gips, bisser-toshlar, moy boyoqlar, dispers bo'yoqlar, kist, folga qog'oz, yelim turlari va boshqa materiallar.

Ishning tartibi:

1. Sopol yuzasini emulsiya bilan oq rangga bo'yab olamiz.
2. Naqshni idish yuzasiga ko'chirib olinadi- qalam yordamida;
3. Bisser va toshlar bilan bezatish bosqichma-bosqich yopishtiriladi;
4. Gipsni sopol chetiga mato yordamida yopishtirish bajariladi;
5. Pardoqlash - buyumni turiga qarab tanlanadi;
6. Sopol cheti emulsiya bilan ranglab olinadi;
7. Yuzaga lak surib, lak qotmasdan yaltiroq dispers boyoq, yoki zar sepiladi.

Bu texnologiya milliy hunarmandchilik turlaridan mujassamlashgan holda yaratiladi. Kulolchilik, naqqoshlik, ganchkorlik hamda bezak toshlar bilan ishlash kabi hunarlar jamlamasidan iborat. Sopol buyumga ishlangan naqsh quyida texnologik xaritada keltirilgan Xulosa o'rnida shu aytish mumkinki, suvenirler tayyorlashning ko'p turlari mavjud bo'lib ularni tayyorlash texnologiyasi har xil. Suvenirlerni tayyorlash orqali talabalarda amaliy san'atga qiziqish, ijodiy kayfiyat, mehnat qilishga motivatsiya uyg'otish, mehnat ko'nikmalarini shakllantirish va milliy qadriyatlarini e'zozlash va qadrlash kabi xislatlarni shakllantiradi. Kelgusida ushbu kasb orqali tadbirkorlik bilan shug'ullanishi va jahonning turli mamlakatlarda o'tkaziladigan ko'rgazmalarda, tanlovlarda ishtirok etishlari mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Razvodovskiy V., Opit issledonaniya goncharnogo i nekotorig drugix kustarnix promislov v Turkestanskom kraye, T., 1916;



2. Raximov M. K., Varodnie traditsii v sovremennoy xudojestvennoy keramike O'zbekistova, T., 1964;
3. Pugachenkova G. A., Rem pel L. I., Ocherki iskusstva Sredney Azii, M., 1982;
4. O'zbekiston san'ati, T., 2001.
5. file:///C:/Users/User/Downloads/943B8-2808-1-10-20220711.pdf
6. file:///C:/Users/User/Downloads/16.pdf